



## ATOQLI OTLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

*Xanmuratova S.X.*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: Xudayarova M.T.*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrasi dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi*

**Tayanch so'zlar:** atoqli ot, pedagogik texnologiyalar, kreativ yondashuv, darslik.

**Ключевые слова:** знаменитые существительные, педагогические технологии, творческий подход, учебник.

**Key words:** famous nouns, pedagogical technologies, creative approach, textbook.

Dars jarayonlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kreativlik (ijodiy yondashuv) orqali ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga sabab bo'ladi. Professional ta'limning maqsadi, mustaqil fikrlash, jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy masalalarga tizimli qarash qobiliyatiga ega, ma'lum o'zgarishlarga nisbatan mustaqil o'z munosabatini bildira oladigan, o'z mustaqil biznesini yurita oladigan, ma'lum kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan kichik mutaxassislarni tayyorlashdir.

Atoqli otlar o'rganilar ekan, avvalo atoqli otlar jumlasiga kiradigan so'zlar ustida ish olib boriladi. Chunonchi, berilgan so'zlarni: 1) kishilarning ismi, familiyasi, taxallusini ifodalovchi otlar, 2) jug'rofiy nomlar, 3) turli tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari (O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi, «Yakkabog'» davlat xo'jaligi, Botanika instituti, «Bahor» ansambli va h.k.), 4) planeta va yulduzlarning nomi (Quyosh, Yupiter va h.k.), 5) tarixiy hodisalar, ro'znoma, oynomalarning nomlari («Ikki eshik orasi» romani, «Tong yulduzi» gazetasi, «Gulxan» jurnali va h.k.), 6) hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar (Boychibor, Yo'lbars va h.k.) singari guruhlariga ajratish, hosil bo'lgan guruhlarini mustaqil davom ettirish, «belgi nomi + turdosh ot» qolipli qo'shma toponimlar masalan, Yangiyo'l, Qorabog', Tinch okeani, Qizil dengiz, Orol dengizi va h.k.), «belgi

nomi + atoqli ot» qoliqli jug‘rofiy nomlar (Shimoliy Kavkaz, O‘rta Osiyo, Markaziy Amerika va h.k.) ro‘yxatni tuzish singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirish va so‘z zaxirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday ma‘lumotlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning atoqli otlar haqidagi tushunchalari kengayadi. Natijada, atoqli otlarni o‘quvchilarga alohida o‘rgatish zarurati tug‘iladi.

Umuman olib qaraganda, o‘quvchilar deyarli har bir dars mobaynida atoqli otlarni uchratishi mumkin. Kishilarning ismlari, topshiriqlarda beriladigan asar va yozuvchi nomlari, joy nomlarini har bir mavzuda ko‘rishimiz mumkin. Lekin, o‘quvchilarga atoqli otlar va ularning imlosini o‘rgatish maqsadida darsliklarda ham alohida mavzular ajratilgan. Quyida atoqli otlarning sinflar kesimida o‘qitilishi, atoqli otlarga ajratilgan mavzular haqida tanishib chiqamiz.

5- *sinf ona tili darsligida* birqancha mavzular atoqli otlar va ularning imlosi haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Darslikda berilgan 67-dars “Bosh harflar imlosi”, - deya nomlangan. Ushbu dars davomida o‘quvchilarga kishi ismlari, joy nomlari, tashkilot, unvonlar, muhim tarixiy kunlar va bayramlar nomlari, gazeta va jurnallar nomlari, telekanallar nomlari bosh harf bilan yozilishi, ularning atoqli otlar guruhiga mansubligi tushuntirilib mustahkamlanishi nazarda tutiladi.

Yuqoridagi darslikda 84-dars ham atoqli otlar bilan aloqador bo‘lib, “Joy nomlari tarixi”, - deb nomlangan. Ushbu dars jarayonida o‘quvchilar toponimlar haqida bilimlarini yanada boyitishadi. Dars davomida toponimlarning qanday ma‘no anglatishini ham izohlab, onomastika va leksikologiya bo‘limlarini o‘zaro bog‘lagan holda o‘rganishadi.

Ushbu darslikdagi yana bir mavzuga diqqatni qaratishimiz kerak. Daraslikdagi 88-dars ham atoqli otlarning katta va juda muhim guruhini tashkil qiluvchi antroponimlar haqidadir. “Ismlar ma‘nosi va imlosi”, - deya nomlangan ushbu mavzu jarayonida o‘quvchilar insonlarga va jamiyki jonli mavjudotlarga atab qo‘yiladigan ismlar haqida bilim olishadi. Bu mavzu ham leksikologiya bo‘limi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar o‘z ismlari, yaqinlari ismlarining qanday ma‘no anglatishini, taxalluslar va ularning ma‘nolari haqida bilib olishadi. Ushbu mavzu juda ahamiyatli bo‘lib, yosh avlodning ongida o‘z milliy ismlarimiz va ularning turli-tuman jozibali ma‘nolari haqida fikrlar yuritishlari, mentalitetimizga zid chet el ismlarining hayotimizga kirib kelishlariga yo‘l qo‘ymaslikni uqtirish maqsadga muvofiqdir.

Yangi nashr qilingan 6- *sinf ona tili darsligidan* o‘rin olgan 4-dars “Global isish” deb nomlanadi. Ushbu mavzu jarayonida Quyosh, Yer kabi kosmonimlar haqida to‘xtalib o‘tiladi. Osmon jismlari nomi ham atoqli



otlar guruhiga mansubligi va imlodida bosh harf bilan yozilishi o‘quvchilarga uqtiriladi.

Darslikdan o‘rin olgan 42-darsda ham atoqli otlar haqida bir qancha ma‘lumotlar berilgan. Ushbu dars mavzusi: “O‘zbekistonning “2035-yildagi tashqi savdo aylanmasi”. Atoqli otlar, ularning ifodalanishi, bosh harflar bilan yozilishi, - deya taqvimiy rejada ko‘rsatilgan. Bu dars mobaynida o‘quvchilar, asosan, shahar nomlari, gazeta va jurnallar nomlari va imlosi haqida bilim olishadi.

Darslikdan o‘rin olgan 60-dars ham atoqli otlar bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur mavzu “Hadislar hikmati”, - deb nomlangan. Ushbu darsda atoqli otlarning teonimlar guruhi, sahobalar ismlari, asar nomlari yuzasidan misollar berilgan. O‘quvchilar lug‘at boyligi teonim so‘zlar va ular ma‘nolari, asarlarning nomlari kabi atoqli otlar bilan boyitiladi.

7- sinf ona tili darsligida ham atoqli otlar yuzasidan bir qancha mavzular rejalashtirilgan. Xususan, 56-dars: “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali. Tasviriy matn. Audiomatn. Tarixiy sanalar, atoqli otlar, joy nomlari imlosi” darsida atoqli otlarning xrononimlar va toponimlar guruhlariga mansub so‘zlar imlosi haqida gap boradi. Dars mobaynida turli festival va tadbirlar nomlari, joy nomlari haqida ma‘lumotlar beriladi.

Atoqli otlarning noo‘zbek sinflarda o‘qitilishi haqida ham to‘xtalib o‘tish muhimdir. 5- sinf o‘zbek tili darsligining ilk mavzulari ot so‘z turkumi haqidagi ma‘lumotlar bilan boshlanadi. Birinchi dars “ Mening vatanim” (Ot – so‘z turkumi. Atoqli va turdosh otlarning qo‘llanilishi), - deb nomlanadi. Ushbu darsda shaxs nomlari va joy nomlari haqida bilimlar beriladi.

Darsliklar misolida kuzatganimizdek, atoqli otlar har bir mavzuda, asosan, antroponimlar va toponimlar qo‘llanilishi, ularni o‘quvchilarga e‘tibordan chetda qoldirmagan holda har dars mobaynida o‘rgatilib, mustahkamlab borilishi maqsadga muvofiqdir. Atoqli otlar, asosan, 5- , 6- , 7- sinflarda alohida mavzu sifatida o‘rgatilishi, keyingi sinflarda alohida mavzular ajratilmasligi, ularni o‘qituvchi mustaqil holda o‘rgatishi maqsad qilingan.

Ta‘lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga bo‘lgan talabning ortib borayotgani fonida tashkilotlar biznes yuritish, o‘qitish va ta‘lim olish, o‘z xodimlarini muammolarni hal qilish uchun jihozlash usullarini izlay boshladilar. Tashkilotlar va ta‘lim muassasalari o‘z xodimlarini yoki o‘quvchilarini zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonlarini olib borishlariga harakat qilmoqdalar. Dars jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning muhim talablaridan biridir.

Ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilar uchun bir qator: fan materiallarini elektron shaklda tayyorlash, taqdimotlar tayyorlash, mavzularni multimedia vositalari yordamida tushuntirish ayni damda qulaylik va dars samaradorligiga erishish uchun juda ahamiyatlidir. O'quvchilar uchun esa multimedia vositalari yordamida boyitilgan fan materiallarini chuqur o'rganish, tajriba ishlarini to'g'gridan to'g'ri real hayot bilan taqqoslab bajarish, amaliy topshiriqlarni bajarishda kompyuter dasturlaridan keng foydalanish va ularning natijalarini turli sohalarga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratadi.

Axborot texnologiyalari mahsullaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z imkoniyatlari bo'yicha bilim olish, o'qituvchi esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Demak, atoqli otlarni o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar deganda dars jarayonida fanning zamonaviy yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda samarali usullar orqali tashkillashtiriladigan dars turi tushuniladi. Ular o'quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini rivojlantirish orqali o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan. Ular onlayn ta'lim olish imkonini beradi; o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi, atoqli otlarni kundalik so'zlashuv amaliyotiga olib kiradi.

Atoqli otlar mavzusini o'qitish jarayonida elektron resurslardan foydalanib, zamonaviy dars jarayonini tashkil qilish o'quvchilar bilim olish saviyasini yanada oshirad. Dars jarayonida an'anaviy darslardan uzoqlashgan holda *glossariy, taqdimot, mavzu yuzasidan savollar, mavzu yuzasidan test, Pisa test,*



topshiriqlar; video dars, audio matnlar ishlab chiqilishi lozim. Mavzuning bayonini o‘qituvchi og‘zaki gapirib o‘tmasdan, taqdimotlar orqali tashkil qilsa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlari, diqqatni jamlashi, mavzuni tushunib olish va amaliy nutqida to‘g‘ri foydalanishi mumkin. Atoqli otlar mavzusini o‘qitishda glossarylar ham tayyorlash juda muhimdir. 5-sinf ona tili darsligida berilgan “Joy nomlari tarixi”, “Ismlar ma’nolari” mavzularida glossary tayyorlash juda o‘rinlidir. Atoqli otlar mavzusini videodars shaklida yaratib, unda interfaol topshiriqlardan foydalanish, mavzuda audiomatnlardan foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshirishda juda ahamiyatli. Videodarslarni o‘quvchilar darsdan tashqari xohlagan paytida qayta ko‘rishlari va mavzu yuzasidan bilimlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.


5- sinf ona tili darsligidagi 67-dars: **“Bosh harflar imlosi”** mavzusini o‘qitishda mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlash, videodarslar tayyorlash, har xillikka asoslangan test topshiriqlarini tuzish darsni zamonaviy innovatsion tashkil qilishda katta samara beradi.

## Bosh harflar imlosi

- 1 *Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi bosh harf bilan yoziladi: Abdulla Qodiriy, Fitrat.*
- 2 *Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: O‘zbekiston (mamlakat), Navoiy (viloyat)*
- 3 *Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi: Xotira kuni, Yangi yi*
- 4 *Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi: Istiqlolim – istiqbolim*

<div style="border: 1px solid black; border-radius: 15px; width: 40px; height: 40px; display: flex; align-items: center; justify-content: center; margin: 0 auto;">1</div> <p style="text-align: center; margin-top: 5px;"><i>Atoqli otlarning antroponimlar guruhi</i></p> <div style="display: flex; justify-content: space-around; margin-top: 10px;"> <div style="text-align: center;">  Sobir         </div> <div style="text-align: center;">  Botir Zokirov         </div> <div style="text-align: center;">  Anvar Obidjon         </div> </div>	<div style="border: 1px solid black; border-radius: 15px; width: 40px; height: 40px; display: flex; align-items: center; justify-content: center; margin: 0 auto;">2</div> <p style="text-align: center; margin-top: 5px;"><i>Atoqli otlarning toponimlar guruhi</i></p> <div style="display: flex; justify-content: space-around; margin-top: 10px;"> <div style="text-align: center;">  Toshkent         </div> <div style="text-align: center;">  Samarqand         </div> <div style="text-align: center;">  Xiva         </div> </div>
---	---

Joriy darslikning “Joy nomlari tarixi” mavzusini o‘qitishda birqancha innovatsion usullardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, “Intellekt xarita”dan foydalanish dars samaradorligini ta’minlovchi asosiy usul hisoblanadi. Drasni quyidagicha intellekt xaritadan foydalanib tashkil qilish mumkin.



“Ismlar va ularning ma’nosi” mavzusini o‘qitishda *jadvallar* asosida dars jarayonini tashkil qilish mumkin. Bunda o‘quvchilar ismlar va ular anglatayotgan ma’nolarni topib jadvaldagi ma’lumotlarni moslashtirishlari kerak bo‘ladi.

Ismlar:	Ma’nalari:
Umid	Xushmuomala, latif
Nazokat	Ulfat, hamdam, do’st
Munis	Xushaxloq, ochiq ko’ngilli, ezgu
Solih	Orzu, tilak, istak

Ismlar anglatgan ma’nolarni to‘g‘ri topgan o‘quvchilar baholanadi.



6- sinf ona tili darsligidan o‘rin olgan **“Hadislar hikmati”** mavzusini o‘qitishda *«Qaysi, qanday yoziladi?»* o‘yinidan foydalanish mumkin. Bu o‘yinda o‘qituvchi ko‘chma doskadagi gapni o‘quvchilarga o‘qib beradi va qaysi gapda qo‘shirnoq qo‘llanishini so‘raydi, o‘quvchilarga shu gaplarni imlo qoidasiga asosan yozish topshiriladi. Tavsiya etiladigan gaplar:

1. Imon Buxoriyning Al-adab al-mufrad kitobida sahih hadislar o‘rin olgan.
2. Hadis va hayot bir- biriga bir- biriga bog‘lanishi darkor. Hadis va hayot kitobini kitob do‘konlaridan topishining mumkin.
3. Qadimda xos xojiblik lavozimi juda sharafli kasb bo‘lgan. Yusuf Xos Hojibning falsafiy-didaktik asari Qutadg‘u biligdir.

Ushbu gaplardagi atoqli otlarga qo‘shirnoqni to‘g‘ri qo‘yib, imlosini izohlagan o‘quvchi o‘yin g‘olibi sanaladi.

Atoqli otlar mavzusini o‘qitishda AKT lardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Jumlada, atoqli otlar mavzusini “Book creator”, “Wordwall”, [www.filippity.net](http://www.filippity.net) internet darsturi kabi birqancha zamonaviy dasturlardan foydalanib, videodars, audiodars shaklida qiziqarli va samarali tashkil qilish mumkin.

Xullas, atoqli otlar mavzusini o‘rganishda tashkil etiladigan o‘yinlar o‘quvchilarning so‘z xazinasini boyitish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, imloviy savodxonligini oshirish, talaffuz me‘yorlarini takomillashtirishga xizmat qilmog‘i kerak.

O‘zbek tili darslarida qiziqarli metod va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning yaratuvchanlik, izlanuvchanlik qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili darslarida atoqli otlar mavzusi alohida dars sifatida 5-sinf o‘zbek tili darsligining birinchi darsidadan o‘rin olgan. “Ot so‘z turkumi. Atoqli va turdosh otlar” mavzusining 2-darsi to‘laligicha atoqli otlar haqida ma‘lumot beradi. Ushbu dars jarayonida o‘qituvchi berilgan topshiriqlarni qiziqarliroq tarzda tashkil qilishi mumkin. Bunda dars jarayonida AKT lardan foydalanib darsni qiziqarli metodlar orqali tashkil qilish mumkin. Quyidagi QR kod orqali o‘quvchilar berilgan harflarni birlashtirib atoqli otlarni hosil qilishlari mumkin. Bunda sinf o‘quvchilarini 5-6 o‘quvchidan iborat kichik guruhlariga ajratib bajartirish mumkin. Birinchi va eng ko‘p so‘z topa olgan guruh rag‘batlantiriladi.



O‘quvchilar 2-mashqda berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzishi kerak bo‘ladi. Ushbu mashqni [www.filippity.uz](http://www.filippity.uz) darsturida yaratilgan quyidagi “Random” metodi orqali bajarishlari mumkin. Bu metod individual tarzda bajarilib, randomda aniqlangan so‘z ishtirokida o‘quvchi og‘zaki gap tuzishi kerak bo‘ladi. Bu metod orqali o‘quvchilarning atoqli otlarni og‘zaki nutq jarayonida qo‘llash malakasi oshadi.



«*Qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri javob top*» o‘yini. O‘zbekiston qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh? O‘zbekistondagi qaysi shaharlarning nomlarini bilasiz? O‘zbekistonning qaysi shaharlari tarixiy obidalarga boy? O‘zbekistonda qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi? O‘zbekistonning qaysi mevalari olamga mashhur? kabi savollarga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar bellashuv g‘olibi bo‘ladi.

O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida quyidagi jadvalda berilgan atoqli otlarning ma’naviy guruhlariga misollar topib, qatorlarni to‘ldirishlari kerak bo‘ladi. Bu usulda sinf o‘quvchilari kichik guruhlariga ajralgan holda bajarishsa samaraliroq natija ko‘rsatadi.

Ismlar	Taxalluslar	Joy nomlari	Hayvonlar nomlari	Gazeta-jurnallar

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi. Dras jarayonlarini noan’anaviy tashkil qilib, dars samarador metod va usullardan foydalanish bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to‘qnashuvi yuzaga keladi. O‘quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog‘onaga



ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Yuqoridagi fikrlar va ularning oqilona yechimi bu ona tili fani o'qituvchisining zimmasidagi vazifalarda o'z tasdig'ini topadi. Xususan, bunday muammolarga yechim topish uchun o'qituvchidan atoqli otlar va ularning ma'noviy guruhlari, imlojihatlarini o'quvchilarga to'g'ri va izchillikda yetkazib berishi talab qilinadi. 5-sinf ona tili darsligidan o'rin olgan "Ismlar va ularning ma'nolari" mavzusini o'qitayotganda o'quvchilar har bir ism qanday ma'no anglatishini, ismlarning ma'nodorlik darajasiga ko'ra farqlay olishi, bugungi kunda tilimizga kirib kelayotgan chet ismlar va ularning ma'nolarini farqlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Albatta, bu o'rinda ona tili fani o'qituvchisining zimmasidagi vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishi talab qilinadi.

Atoqli otlar mavzusiga ajratilgan har bir darsning ichki mohiyatidan kelib chiqqan holda dars jarayonini samarali va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi bu ona tili fani o'qituvchisining mahoratidan darak beradi. Bugungi kun talabi sifatida dars jarayonini tashkil qilishda pedagog o'z darsini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv metodlar asosida tashkil qilishi davr talabi hisoblanadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yosh avlodning ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati kattadir.

#### Adabiyotlar:

1. A.G'ulomov, M.Qodirov va boshqalar: "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent. 2012, 187-bet.
2. Kurbanova Sh. Omonov A. Elektron ta'lim kontenti yaratishdardarstur simulyatori vositalari o'rni haqida. "Pedagogs". 2022-yil, 88-bet
3. A.G'ulomov, M.Qodirov va boshqalar: "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent. 2012, 194-bet.
4. A.G'ulomov, M.Qodirov va boshqalar: "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent. 2012, 194-bet

#### РЕЗЮМЕ

Atoqli otlarni o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida, kreativ (ijodiy yondashuv) asosida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy AKT asosida gumanitar fanlarda yangi dars shakliini tashkil etishdan iborat.

#### РЕЗЮМЕ

Повысить качество образования в области изучения знаменитых существительных с помощью современных педагогических технологий, на основе творческого (творческого подхода), организовать новую форму занятий по гуманитарным наукам на основе современных ИКТ.

#### SUMMARY

To improve the quality of education in the field of studying famous nouns with the help of modern pedagogical technologies, based on a creative approach, to organize a new form of classes in the humanities based on modern ICT.